




**НАУЧНЫЙ  
ИМПУЛЬС**

ЦЕНТР НАУЧНОЙ  
ПОДДЕРЖКИ

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ**

# **НАУЧНЫЙ ИМПУЛЬС**



**Последние  
новости**

**Последние  
образование**

**Последние  
исследование**

**И НОВЫЕ НАУКИ**



*Международный современный научно-практический журнал*

# Научный импульс

№ 4 (100)  
Ноябрь 2022 г.

**Часть 2**

Издается с августа 2022 года

Москва 2022

*Председатель редколлегии:*

**Гуляева Елена Камаловна** - Представитель технической поддержки

*Редакционная коллегия:*

**Макаровский Руслан Сергеевич** - Заведующий кафедрой организационного управления Института прикладного анализа поведения и психолого-социальных технологий, практикующий психолог, специалист в сфере управления образованием.

**Арестова Инесса Юрьевна** – канд. биол. наук, доц. кафедры биоэкологии и химии факультета естественнонаучного образования ФГБОУ ВО «Чувашский государственный педагогический университет им. И.Я. Яковлева», Россия, г. Чебоксары;

**Ахмеднабиев Расул Магомедович** – канд. техн. наук, доц. кафедры строительных материалов Полтавского инженерно-строительного института, Украина, г. Полтава;

**Бахарева Ольга Александровна** – канд. юрид. наук, доц. кафедры гражданского процесса ФГБОУ ВО «Саратовская государственная юридическая академия», Россия, г. Саратов;

**Бектанова Айгуль Карибаевна** – канд. полит. наук, доц. кафедры философии Кыргызско-Российского Славянского университета им. Б.Н. Ельцина, Кыргызская Республика, г. Бишкек ;

**Волков Владимир Петрович** – канд. мед. наук, рецензент АНС «СибАК»;

**Елисеев Дмитрий Викторович** – канд. техн. наук, доцент, начальник методологического отдела ООО "Лаборатория институционального проектного инжиниринга";

**Комарова Оксана Викторовна** – канд. экон. наук, доц. доц. кафедры политической экономики ФГБОУ ВО "Уральский государственный экономический университет", Россия, г. Екатеринбург;

**Лебедева Надежда Анатольевна** – д-р филос. наук, проф. Международной кадровой академии, чл. Евразийской Академии Телевидения и Радио, Украина, г. Киев;

**Маршалов Олег Викторович** – канд. техн. наук, начальник учебного отдела филиала ФГАУ ВО "Южно-Уральский государственный университет" (НИУ), Россия, г. Златоуст;

**Орехова Татьяна Федоровна** – д-р пед. наук, проф. ВАК, зав. Кафедрой педагогики ФГБОУ ВО «Магнитогорский государственный технический университет им. Г.И. Носова», Россия, г. Магнитогорск; **Самойленко Ирина Сергеевна** – канд. экон. наук, доц. кафедры рекламы, связей с общественностью и дизайна Российского Экономического Университета им. Г.В. Плеханова, Россия, г. Москва ;

**Сафонов Максим Анатольевич** – д-р биол. наук, доц., зав. кафедрой общей биологии, экологии и методики обучения биологии ФГБОУ ВО "Оренбургский государственный педагогический университет", Россия, г. Оренбург;

**Милютин Николай Даминович** – Доктор юридических наук;

**Сергеев Анатолин Викторович** – Кандидат биологических наук.

**Научный импульс:** научный журнал. – № 3(100). Часть 1. М., Изд. «МЦНО», 2022.

Журнал «Научный импульс» освещает сферу духовно-просветительского мышления человека, общественно-политическую жизнь человека, институты гражданского общества, глобальные проблемы, проблемы образования, новые технологии, производимые сегодня, реформирование системы образования и публикуются научные статьи, посвященные открытому научно-популярному анализу.

## СОДЕРЖАНИЕ:

Название научной статьи, ФИО авторов	Номер страницы
<b>TARIXIY METROLOGIYA VA UNING VAZIFALARI</b> Sattorov Firdavs Ulug'bek o'g'li Abdiyeva Odina Xolnazar qizi Sattorov Muzrob Chori o'g'li	<b>20</b>
<b>IZOTOPLAR. IZOBARLAR. IZATONLAR</b> Mashhuraxon Qurbonova	<b>26</b>
<b>MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA MULTIMEDIADAN FOYDALANISH</b> Turdiyev Azamat G'ayratovich G.D.Durmanova	<b>29</b>
<b>АНТИОКСИДАНТНАЯ АКТИВНОСТЬ ОТДЕЛЬНЫХ КОМПОНЕНТОВ БАД "Buyrak-shifo"</b> Хомидчонова Шахзода Хасанзода	<b>32</b>
<b>SOME BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF WALNUT LEAVES PEST SPECIES</b> Yuldasheva Shokhista Kobiljonovna	<b>40</b>
<b>BIOECOLOGY OF SOME SPECIES THAT SERIOUSLY DAMAGE THE LEAVES OF THE PEAR PLANT IN NATURE</b> Yuldasheva Shokhista Kobiljonovna Komilova Dildora Ikromjonovna Tolipov Nodirbek Xasanboy o'g'li	<b>46</b>
<b>SPECIES COMPOSITION AND CLASSIFICATION OF SOME INVESTIGATING PESTS FOUND IN ORCHARDS</b> Yuldasheva Shokhista Kobiljonovna Teshajonova Maxliyo Marufjon qizi Saydaliyeva Roxatoy Zaylobidinovna	<b>52</b>
<b>BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CERTAIN RODENTS OF THE ABOVE- GROUND PARTS OF THE COTTON PLANT</b> Yuldasheva Shokhista Kobiljonovna Gofurova Ominakhom Mukhammadzikirovna Sirojiddinova Gullola Abduvali qizi	<b>58</b>
<b>КЛИНИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ, ТЕЧЕНИЕ КОРОНОВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ, ОСЛОЖНЕНИЯ И ХАРАКТЕР ПОСТКОВИДНОГО СИНДРОМА У ДЕТЕЙ Г. ФЕРГАНЫ</b> Алимова Ирода Анваровна Ахмедова Матлуба Мухаммаджоновна Абдухалилова Гулчехра Мамировна Пулатов Рузимухаммад	<b>64</b>
<b>FEATURES OF CREATIVE THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS</b> Do'sjonova Nilufar Rustam qizi	<b>73</b>
<b>ФЕРГАНЫ КЛИНИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ, ТЕЧЕНИЕ КОРОНОВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ, ОСЛОЖНЕНИЯ И ХАРАКТЕР ПОСТКОВИДНОГО СИНДРОМА У ДЕТЕЙ Г.</b> Алимова Ирода Анваровна	<b>64</b>

Islomov Akbar Sadulloevich Egamnazarov Muxriddin Faxriddin o'g'li	
<b>QASHQADARYO VILOYATI KITOB TUMANI SHEVASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b> Nazokat Jiyanova Misliddinova Rushana	<b>281</b>
<b>MUSTAQILLIK YILLARI O'ZBEKISTONDA MUZEY USLUBIYATINING DOLZARB MUOMMOLARI</b> Allaberganova Umida Karimberganovna	<b>283</b>
<b>LIZIN ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI</b> Qodirova Go'zalxon Hamroyeva Gulmira	<b>286</b>
<b>JONDOR SHEVASIDAGI UY-RO'ZG'OR BUYUM NOMLARIDA O'ZLASHMA QATLAM MASALASI (FORS-TOJIK TILI MISOLIDA)</b> Erkinboyeva Norgul Barot qizi	<b>290</b>
<b>PREVENTION AND TREATMENT OF COMPLICATIONS AFTER WHITENING</b> Orifkhujayeva M.V Norova M.B Orifkhujayeva Mekhriniso Valijonovna Norova Mavjuda Bahodirovna	<b>293</b>
<b>КАМ ФЙДАЛАНИЛАДИГАН ТЕХНИКАЛАРНИ ЗАНГЛАБ ЕЙИЛИШДАН САҚЛАШ УЧУН АШЁЛАР</b> А.С.Собиржонов В.М.Мелиев	<b>300</b>
<b>ПУСТЫННЫЕ ЭКОСИСТЕМЫ И ИХ УСТОЙЧИВОСТЬ</b> Хамидов А.А Дехканбаева М.Н	<b>307</b>
<b>МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРИ РЕШЕНИИ ТЕКСТОВЫХ ЗАДАЧ ПО МАТЕМАТИКЕ</b> Сюткина Светлана Михайловна	<b>314</b>
<b>АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЭКСПЛУАТАЦИИ ДОРОЖНЫХ СООРУЖЕНИЙ</b> Ганиев Инъомжон Гуломович	<b>319</b>
<b>ASSOTSIATIV PSIXODIAGNOSTIKA METODIKALARI HAQIDA TUSHUNCHA</b> Latibjonov Rahmatillo Abdurashid o'g'li	<b>331</b>
<b>АГРОТЕХНИКА ВЫРАЩИВАНИЯ НОВОГО ПЕРСПЕКТИВНОГО СОРТА ТЫКВЫ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ</b> Раматов Б.З Матякубов М.М	<b>334</b>
<b>АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ</b> Бобомурадова Юлдуз Садирдиновна	<b>337</b>
<b>МАКТАВГАЧНА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLADA MEHNAT KO'NIKALARINI TASHKIL QILISH</b> Mamedova Maftuna Muhidinovna	<b>341</b>
<b>МАКТАВГАЧНА ТА'ЛИМ TASHKILOTIDA AXLOQIY TARBIVANING NAZARIY ASOSLARI</b> Mamedova Maftuna Muhidinovna Kosimova Manzura Abdullayevna	<b>347</b>

<b>ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ETNOPELAGOGIKA NAMUNALARINI O'RGATISH METODIKASI</b> D.N.Xayrullayeva	<b>353</b>
<b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ASARLARGA QIZIQTIRISH USULLARI</b> Bahronova Mashhura Jo'rabek qizi Zarifova Setora Zayniddin qizi	<b>359</b>
<b>MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNING XALQ OG'ZAKI IJODI NA'MUNALARI ORQALI MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISH</b> Islomova Mehriniso Mirzoyevna Sultonova Feruza Hayot qizi	<b>365</b>
<b>GLOBALLASHUV DAVRIDA TARBIIYACHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR</b> Jamolova Shoyira Uyg'un qizi Hikmatova Dildora Mirzo qizi	<b>370</b>
<b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA ERTAK O'RGATISH METODIKASI</b> Matniyozova Shohida Bahodir qizi Ismatova O'g'iloy Sobir qizi	<b>375</b>
<b>BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIIYACHI NUTQI NAMUNA-O'RNAK VOSITASI SIFATIDA</b> Sharipova Maxbuba Baxshilloevna Safarova Farida Shermat qizi	<b>379</b>
<b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI</b> To'rayeva Surayyo Muhammadovna Idiyeva Gulhayo To'xtasin qizi	<b>384</b>
<b>TAKSIS SEMANTIKASI VA UNING IFODALANISH VOSITALARI</b> Saidova Zakira Tolibovna	<b>389</b>
<b>MAKTABGACHA TALIM VA MAKTAB TA'LIMI HAMKORLIGI</b> M.M.Nigmatova D.E.Erkinova	<b>396</b>
<b>BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING O'ZIGA XOS PEDAGOGIK IMKONIYATLARI</b> Bahronova A.I	<b>401</b>
<b>"YOZUV DAFTARI" ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING CHIROYLI YOZISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI (1- SINIF MISOLIDA)</b> Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich Karimova Dilnoza Baxtiyor qizi	<b>403</b>
<b>KICHIK MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BADIY VA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VOSITALARI</b> Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna Yoriqulova Gulnigor Sohibjon qizi	<b>409</b>
<b>KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MANTIQ VA INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH</b> Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna Hotamova Iroda Umar qizi	<b>414</b>
<b>BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING GRAMMATIKAGA OID TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMY O'YINLARDAN FOYDALANISH</b>	<b>419</b>

**“YOZUV DAFTARI” ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING  
CHIROYLI YOZISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI (1- SINIF  
MISOLIDA)**

**Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich**

*Buxoro davlat universiteti dotsenti*

**Karimova Dilnoza Baxtiyor qizi**

*Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti*

**Maqolada:** *husnixatga o‘rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o‘quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o‘rgatish ularning chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirish yozuv daftarlari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish haqida fikr-mulohaza yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *alifbe, yozuv, maktab, sinf, tayyorgarlik, mashq, grammatika, ta‘lim, harf.*

**МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ГРАМОТНОЙ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ У  
УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ТЕТРАДИ «ПРОПИСЬ» (НА  
ПРИМЕРЕ 1 КЛАССА)**

*Основной целью обучения каллиграфии является школьников сложному процессу письма, развитие у учащихся навыкам красивого письма, формирование навыков работы с тетрадями.*

**Ключевые слова:** *алфавит, письмо, школа, класс, подготовка, упражнение, грамматика, образование, письмо.*

**METHODS OF FORMING GOOD WRITING SKILLS OF ELEMENTARY SCHOOL  
STUDENTS ON THE BASIS OF "NOTEBOOK" (IN THE EXAMPLE OF 1ST GRADE**

**Abstract :** *In the article, the main goal of teaching husnixat is to teach the complex process of writing to young students, to develop their beautiful writing skills, and to form the skills of working with notebooks.*

**Keywords:** *alphabet, writing, school, class, preparation, exercise, grammar, education, letter.*

Husnixatga o‘rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o‘quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o‘rgatish orqali, ularning chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirishdan iboratdir. Husnixatning oldiga bir qator vazifalar qo‘yiladi. Bu vazifalar ko‘p qirrali bo‘lib o‘quvchilarni aqliy rivojlantirishga, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirishga, axloqiy va estetik didini tarbiyalashga, ongli o‘qish va yozish malakalarini hamda yozuv daftarlari bilan ishlash ko‘nikmalarini



shakllantirishdan iborat. Mazkur vazifalarning barchasi o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi. Ularni hal qilish zaruriy yozuv malakalarini egallashga darslikda berilgan o'quvchilar saviyasiga mos nazariy va amaliy materiallar uyg'unlashtirilib, o'zlashtirish ustida ishlashni maqsadga muvofiq uyushtirish, shuningdek, matnlar sifatini, topshiriqlar xususiyatini va bolalar aqliy faoliyatining oziga xos tomonlarini belgilaydigan qator usuliy shart-sharoitlarga bog'liq.

Bola kamolotining shakllanishi ko'p jihatdan chiroyli yozuvga ham bog'liq. Chiroyli yozish orqali bolalar boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

Inson hayotida yozuv muhim o'rin tutadi, chunki u har kuni turli-tuman qog'ozlar va hujjatlardan foydalanadi. Bularning hammasi chiroyli va bexato yozishni taqozo etadi. Ammo qisqa muddat ichida kichik yoshdagi o'quvchilarda chiroyli, tez va bexato yozish malakalarini o'stirish mumkin emas, buning uchun bir necha yil talab etiladi. Chiroyli yozuvga o'rgatish uchun bolalarning maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab izchil mashqlar asosida olib borish zarur. Harflarni yozishda o'qishga o'rgatishdagi tarkib asos qilib olinadi, ya'ni o'qish darsida o'quvchilar harfni o'zlashtiradilar, matnni o'qiydilar, yozuv darsida esa shu harfli so'zni yozadilar.

Yozuvga o'rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta'lim berish, ko'nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi.

Grafik malaka, birinchidan, qo'l-harakat malakasidir, bu harakat birinchi qarashda muskul kuchiga asoslanadi. Ikkinchidan, yozuv jarayonida nutqning o'zlashtirilgan birligi bo'lgan tovush grafik belgilarga, ya'ni harfga tarjima qilinadi. Bu yozuvga ongli faoliyat tusini beradi. Yozuvning ongliligi, birinchidan, tovush va harfning to'g'ri nisbatini, ikkinchidan, bir qancha grafik va orfografik qoidalarga rioya qilishni, uchinchidan, o'z fikrini, taassurotini ifodalashda yozuv malakalaridan foydalanishni talab qiladi.

Yozishdan birdan-bir maqsad fikrni ifodalashda yozuvlaridan foydalanish hisoblanadi. Bu maqsadni bolalar tez anglab yetsalar, ularda yozma nutq malakasi shunchalik muvoffaqiyatli va to'g'ri shakllanadi. Savod o'rgatish jarayonida bolalar juda sekin yozadilar, uz fikrini, xatto bir yozuv bilan yozma ifodalash uchun ham yarim oylar o'tadi. Yozuv malakasi o'qish malakasi bilan uzviy bog'liqdir. Bola yomon o'qisa, yozuvni egallashi qiyin bo'ladi, chunki bo'g'inlab o'qish malakasidan so'ng, bo'g'inlab yozish malakasi shakllanadi.

Yozish va o'qish uchun bolaning umumiy nutqiy rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Keyinroq bolalarda uz fikrini yozma ifodalash malakasi bir oz barqarorlashganda, bu malaka nutqga, fikrni ifodalash jarayoniga ham ijobiy ta'sir qiladi.

### **Grafik malakani shakllantirishda quyidagi bosqichlar:**

1. Turli shakllar andozasi ustidan chizish. Erkin rasmlar chizish. Yozuv qurollarini to'g'ri tutish, turli qiya elementlar chizish, uzunlikni, oraliq masofani chamalash va hokazo.



2. Harf elementlarini yozish, baravar masofada qisqa va uzun elementlar, osti va usti ilmoqli elementlar chizish.

3. Bosh va kichik harflarni alohida yozish, harf birikmalarini, bo'g'inni yozish, harflarni to'g'ri tushib yozish malakasini hosil qilish uchun so'z yozish. Grafik malakani hosil qilishdan asosiy maqsad, harflarni bosmasdan bir tekisda, elementlarga ajratmay bog'lab tez, bir maromda yozish, so'zlarni qatorga to'g'ri joylashtirishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, savod o'rgatish davrida bola harflarni yozishdan oldin uni qanday shakllantirishni ko'z oldiga keltirib, fikrlab oladi, ba'zan harf shaklini havoda «chizadi», harf namunasini ko'chiradi, tarkibini tahlil qiladi, uni qanday yozishni o'zicha sekin gapiradi: o'qituvchi o'quvchi yoniga o'tirib, ruchkani to'g'ri ushlatadi va uning qo'li bilan harfni yozishni ko'rsatadi yoki o'zi yozib tushuntiradi. Bundan tashqari, bola yozuvning texnik tomoniga katta jismoniy kuch sarflaydi. Savod o'rgatish oxirida bola bir darsda 20 tacha so'zni yozishi mumkin.

Savod o'rgatish davrida bolalarni yozuvga o'rgatish uchun turli vaqtlarda turli xil chiziqli daftarlardan foydalanilgan: dastlab chiziqsiz silliq qog'oz ishlatilgan bo'lsa, keyin quyoq yopiq chiziqlar bilan kesilgan uch chiziqli daftardan foydalanilgan. Bunday daftarda yozuvga o'rgatilgan bola boshlang'ich sinflarni bitirgunga qadar besh xil daftarga yozishni o'rganishi talab etilar edi.

Hozirgi vaqtda yozuvga o'rgatish uchun ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. Doska ham shunga mos bo'lishi talab qilinadi; 2-sinfдан, ba'zan birinchi sinfda o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab bir chiziqli daftarga yozishga o'tiladi.

Daftar tutishda bolalarni hoshiya qoldirishga, daftar chiziqlariga rioya qilishga, harflarni bir xil hajmda yozishga, sarlavxani aniq va to'g'ri ajratishga, xat boshidan yozishda joy qoldirishni unutmaslikka o'rgatib borish ularda saranjomsarishtalikni tarbiyalaydi. Yozuv darsida o'quvchilar «Yozuv daftari» bilan ishlaydilar. Sinfda o'rganilgan harfni uyda mashq qilish uchun alohida daftar bo'lgani ma'qul.

O'qituvchi yozish vaqtida 65 gradus qiyalikda yozishni, buning uchun daftar parta ustiga 25 gradus qiyalikda qo'yilishini ta'kidlab turadi.

Orfografiya so'zi grekcha «to'g'ri» va «yozaman» so'zlaridan olingan bo'lib, adabiy tilning yozma shakli bilan bog'liq. Orfografiya to'g'ri yozish haqidagi qoidalar ko'nikmasidir. Orfografiyani bilmay turib, fikrni adabiy til normalari asosida yozma ifodalab bo'lmaydi. O'quvchilarning orfografik savodxonligi qaqida g'amxo'rlik qilish tilning aniqligi, fikrni to'g'ri ifodalash, kishilar bilan o'zaro xatosiz muomala qilish uchun g'amxo'rlik demakdir. Savod o'rgatishda bolalarda grafik malakani shakllantirish bilan bir vaqtda imloga oid malakani shakllantirishga ham zamin yaratiladi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar talaffuzi va yozilishida farq qilmaydigan so'zlarda tovush bilan harfning mosligini; so'zlarni alohida yozishni, ya'ni yozuv vositasida so'zni ma'no birligi sifatida ajratishni; so'zning satrga sig'may qolgan qismini keyingi qatorga bo'g'inlab ko'chirib yozishni, bunda bo'g'in hosil qilgan bir unli harfni qatorga ko'chirib yozib bo'lmasligini; gap boshida, shuningdek, kishilar ismida,

hayvonlarga qo'yilgan nomlarda bosh harfning ishlatilishini amaliy tarzda o'rganadilar. Savod o'rgatish davridayoq ko'chirib yozish, diktant va ijodiy yozuvlardan foydalaniladi. O'z-o'zini tekshirishga o'rganadilar.

Yozuv darslarida ham o'quvchilar nutqini o'stirish, fikrlashga o'rgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu davr o'quvchilarni to'g'ri va chiroyli savodli yozishlari uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Chiroyli yozuv qoidalarini yaxshi bilish yozuv malakasining shakllanishiga yaqindan yordam beradi. Chiroyli yozuv qoidalarini qisqa va tushunarli qilib bayon etish lozim, shundagina o'quvchilar uni to'liq o'zlashtirishlari va amalda qo'llashlari mumkin. Masalan, so'zlarda harflarning balandligini va qiyaligini bir xilda saqlash, so'zlarda harf unsurlari va harflar oralig'ini bir xil uzoqlikda chamalab yozish kabi qoidalarni asta-sekin o'z o'rnida o'rgatib borish lozim. Yozuvning qiyaligi haqidagi tushunchalar chuqur singdirilgandan so'ng, harflarni bir xil masofada tekis yozish qoidalari o'rgatiladi. Harflarni qo'l harakatini uzmasdan yozish qoidalari o'rganilgandan so'ng, so'zlarni qo'l harakatini uzmasdan yozish qoidalari o'rgatiladi. Ammo har bir qoidani har darsda o'quvchini bezdiradigan darajada takrorlash yaramaydi, bunda ongli ravishda o'zlashtirish uchun mo'ljallangan qoidalar asqotishi mumkin.

Sanoq-ohang usuli. Bunda o'qituvchi harf va uning unsurlarini sanash orqali yozdirib tushuntiradi. Bu usulni ayniqsa savod o'rgatish davrida keng qo'llash mumkin. Sanoq-ohang usuli harflarning tekis yozilishini ta'minlaydi va harf unsurlarining tushib qolishiga yo'l qo'ymaydi; sekin yozadigan o'quvchilarni tez yozishga undaydi; o'quvchilarga harakatlarni aniq va dadil bajarishni o'rgatadi. Ammo bu usuldan butun dars davomida foydalanish tavsiya qilinmaydi, chunki o'quvchilar charchab, yozuv sifatini pasaytirib yuborishlari mumkin.

Sanoq-ohang usulini qo'llashda, asosan, harflarning asosiy unsuri "bir", "ikki", "uch" deb sanab boriladi, yordamchi ulash unsuri esa "va" deb bog'lanadi. Sanoq-ohang usulidan bo'g'in, so'z va gaplarni yozdirishda ham foydalanish mumkin.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarni husnixatga o'rgatishning asosiy maqsadi ham o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini ravon qilish hamda ularni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni go'zallikka intiluvchi, uni yurakdan his qila oladigan go'zallikni yaratishga intiladigan kishilar qilib voyaga yetkazishni nazarda tutadi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т.: Ўзбекистон, 2017. -46 б.
2. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi –Т.: Yangiyo'l poligraf service, 2017. – 1-160. b.
3. Rohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova. Alifbe 1-sinf [Matn] darslik.- Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021 -80 b.
4. Qo'ldoshev R. Maktab o'quvchilarining grafik va kalligrafik qobiliyatlarini shakllantirishning metodologik asoslari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
5. Қўлдошев Р. А. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЧАПАҚАЙ ЎҚУВЧИЛАРНИ ЁЗУВГА ЎРГАТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1120-1129.
6. Qo'ldoshev R. Left-handedness and the reasons for its occurrence //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
7. Qo'ldoshev R. Кўмаки педагог ба кўдакони чапдаст дар соли якуми хониш. – GlobeEdit, 2020.
8. Qo'ldoshev R. ЧАПАҚАЙ О'ҚУВЧИЛАРДА YOZUV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
9. Azimov Y., Qo'ldoshev R. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari. – GlobeEdit, 2020.
10. Rustambek Q. O. L. Birinchi sinf chapaqay o'quvchilarining maktabga moslashishi, maktabga moslashishi davridagi pedagogik yordamning mazmuni //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
11. Rustambek Q. O. L. Birinchi sinf chapaqay o'quvchilarining maktabga moslashishi, maktabga moslashishi davridagi pedagogik yordamning mazmuni //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
12. Qo'ldoshev R. Кўмаки педагог ба кўдакони чапдаст дар соли якуми хониш.–GlobeEdit, 2020. 13. Qo'ldoshev RA Left-handed children and the learning process //EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume. – Т. 5. – С. 277-281.
13. QO R. LDOSHEV //Chapaqay bolalarni maktabga qanday tayyorlash kerak. – С. 145-147.
14. Qo'ldoshev R. A., BIRINCHI S. C. O. Q. M., MOSLASHISHI M. M. D. P. Y. MAZMUNI//Pedagogik mahorat. – 2020.
15. Qo'ldoshev R. A. Cognitive activity of left-handed children." PRIMARY EDUCATION: PROBLEMS AND PROSPECTS" III-International Scientific and Practical Conference. – 2020.
16. Qo'ldoshev, R. (2022). Детская левша как психолого-педагогическая проблема. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 22(22).